

**Mavzu: Chiziqli funksiya : $y=ax+b$  uning xossalari va grafigi.**

**Kvadrat funksiya  $y=ax^2+bx+c$  uning xossalari va grafigi.**

$y = kx + b$  funksiyaga chiziqli funksiya deyiladi.



1.  $x \in (-\infty; +\infty)$  mavjudlik (aniqlanish) sohasi.

$y \in (-\infty; +\infty)$  qiymatlar (o'zgarish) sohasi.

2.  $k > 0$  da o'suvchi ,  $k < 0$  da kamayuvchi ,  $x \in (-\infty; +\infty)$  da.

3. Chiziqli funksiya grafigi to'g'ri chiziqdan iborat.

4.  $b = 0$  ;  $k > 0$  ;  $y = kx$                     5.  $b = 0$  ;  $k < 0$  ;  $y = kx$



6.  $y = kx + b$  ga to'g'ri chiziqqa perpendikulyar va  $M(x_0, y_0)$  nuqtadan o'tgan to'g'ri chiziq tenglamasi :

$$y - y_0 = -\frac{1}{k}(x - x_0) \quad (k_1 = -1/k \text{ perpendikulyarlik sharti})$$

7..  $y = kx + b$  ga to'g'ri chiziqqa parallel va  $M(x_0, y_0)$  nuqtadan o'tgan to'g'ri chiziq tenglamasi :

$$y - y_0 = k(x - x_0) \quad (k_1 = k \text{ parallellik sharti}).$$

1- misol.  $M(2; -3)$  nuqtadan o'tuvchi va  $y = 5x - 6$  to'g'ri chiziqqa parallel bo'lgan to'g'ri chiziq tenglamasini tuzamiz.

$M(x_1; y_1)$  va  $N(x_2; y_2)$  nuqtalardan o‘tuvchi to‘g‘ri chiziqlar tenglamasi

$$\frac{y - y_1}{y_2 - y_1} = \frac{x - x_1}{x_2 - x_1}$$

Formula orqali topiladi.

2- misol.  $M(-2; -3)$  va  $N(4; -1)$  nuqtalardan o‘tuvchi to‘g‘ri chiziqning tenglamasini tuzamiz.

## Kvadrat funksiya

$y = x^2$  funksiya



1. Aniqlanish (mavjudlik) sohasi  $x \in (-\infty; \infty)$
2. Qiymatlar (o'zgarish) sohasi .  $y \in [0; +\infty)$
3.  $y = x^2$  juft funksiya.
4. Funksiya  $(-\infty; 0]$  kamayuvchi,  $[0; \infty)$  da o'suvchi.
5.  $y = x^2$  juft funksiya grafigi parabola

$$y = ax^2 + bx + c$$

Kvadrat funksiyaning umumiyligi ko'rinishi . a,b,c koeffitsiyentlar.

1. Aniqlanish (mavjudlik) sohasi  $x \in (-\infty; \infty)$
2. Funksiya grafigi parabola , uchi  $\left( -\frac{b}{2a}; \frac{4ac - b^2}{4a} \right)$  nuqtada yotadi .

$$x_0 = -\frac{b}{2a} ; \quad y_0 = \frac{4ac - b^2}{4a} ;$$



**1-masala.**  $y = x^2 - 4x + 3$  funksiyaning grafigini yasang.

Δ 1. Parabola uchining koordinatalarini hisoblaymiz:

$$x_0 = -\frac{-4}{2} = 2,$$

$$y_0 = 2^2 - 4 \cdot 2 + 3 = -1.$$

(2; -1) nuqtani yasaymiz.

2. (2; -1) nuqta orqali ordinatalar o‘qiga parallel to‘g‘ri chiziq, ya’ni parabolaning simmetriya o‘qini o‘tkazamiz (13- a rasm).

3. Ushbu

$$x^2 - 4x + 3 = 0$$

tenglamani yechib, funksiyaning nollarini topamiz:  $x_1 = 1$ ,  $x_2 = 3$ . (1; 0) va (3; 0) nuqtalarni yasaymiz (13- b rasm).

**2- masala.**  $y = -2x^2 + 12x - 19$  funksiyaning grafigini yasang.

**7.110.** Koordinatalar boshi va  $M$  nuqta ustidan o‘tuvchi to‘g‘ri chiziq tenglamasini tuzing:

a)  $M(3; -4)$ ; b)  $M(0; -3)$ ; d)  $M(3; 0)$ ; e)  $M(2; 5)$ .

**7.111.** Chiziqli funksiyalarning grafiklarini yasang:

a)  $y = x - 2$ ; b)  $y = -x + 3$ ; d)  $y = 4x - 2$ ; e)  $y = -2x - 5$ .

**7.112.**  $M(-2; 7)$  nuqtadan o‘tuvchi va burchak koeffitsiyenti  $k = 3$  bo‘lgan to‘g‘ri chiziq tenglamasini tuzing va chizing.

**7.113.**  $M$  nuqtadan o‘tuvchi va burchak koeffitsiyenti  $k$  bo‘lgan to‘g‘ri chiziq tenglamasini tuzing:

a)  $M(-2; -1)$ ,  $k = 2$ ;      b)  $M(0; -4)$ ,  $k = -3$ ;

d)  $M(-1; -2)$ ,  $k = \frac{1}{3}$ ;      e)  $M(5; 2)$ ,  $k = \frac{1}{3}$ .

**7.114.**  $A(-4; 6)$  nuqtadan o‘tib,  $y = 3x + 5$  to‘g‘ri chiziqqqa parallel bo‘lgan to‘g‘ri chiziq tenglamasini tuzing.

**35.** Parabola uchining koordinatalarini toping:

- 1)  $y = x^2 - 4x - 5$ ;      2)  $y = x^2 + 3x + 5$ ;  
3)  $y = -x^2 - 2x + 5$ ;      4)  $y = -x^2 + 5x - 1$ .

**36.** Parabolaning koordinata o‘qlari bilan kesishish nuqtalarini koordinatalarini toping:

- 1)  $y = x^2 - 3x + 5$ ;      2)  $y = -2x^2 - 8x + 10$ ;  
3)  $y = -2x^2 + 6$ ;      4)  $y = 7x^2 + 14$ .

Funksiyaning grafigini yasang va grafik bo‘yicha: 1)  $x$  ning funksiyaning qiymatlari musbat, manfiy bo‘ladigan qiymatlarini toping; 2) funksiyaning o‘sish va kamayish oraliqlarini toping; 3)  $x$  ning qanday qiymatlarida funksiya eng katta yoki eng kiciga qiymatlar qabul qilishini aniqlang va ularni toping (**37–38**).

**37.** 1)  $y = x^2 - 7x + 10$ ;      2)  $y = -x^2 + x + 2$ ;  
3)  $y = -x^2 + 6x - 9$ ;      4)  $y = x^2 + 4x + 5$ .

**38.** 1)  $y = 4x^2 + 4x - 3$ ;      2)  $y = -3x^2 - 2x + 1$ ;  
3)  $y = -2x^2 + 3x + 2$ ;      4)  $y = 3x^2 - 8x + 4$ ;  
5)  $y = 4x^2 + 12x + 9$ ;      6)  $y = -4x^2 + 4x - 1$ ;  
7)  $y = 2x^2 - 4x + 5$ ;      8)  $y = -3x^2 - 6x - 4$ .

**50.** Parabolaning koordinata o‘qlari bilan kesishish nuqtalari koordinatalarini toping:

1)  $y = x^2 + x - 12;$

2)  $y = -x^2 + 3x + 10;$

3)  $y = -8x^2 - 2x + 1;$

4)  $y = 7x^2 + 4x - 11;$

5)  $y = 5x^2 + x - 1;$

6)  $y = 5x^2 + 3x - 2;$

7)  $y = 4x^2 - 11x + 6;$

8)  $y = 3x^2 + 13x - 10.$

**51.** Parabola uchining koordinatalarini toping:

1)  $y = x^2 - 4x - 5;$

2)  $y = -x^2 - 2x + 3;$

3)  $y = x^2 - 6x + 10;$

4)  $y = x^2 + x + \frac{5}{4};$

5)  $y = -2x(x + 2);$

6)  $y = (x - 2)(x + 3).$

**52.** Funksiyaning grafigini yasang va grafik bo‘yicha uning xossalari aniqlang:

1)  $y = x^2 - 5x + 6;$

2)  $y = x^2 + 10x + 30;$

3)  $y = -x^2 - 6x - 8;$

4)  $y = 2x^2 - 5x + 2;$

5)  $y = -3x^2 - 3x + 1;$

6)  $y = -2x^2 - 3x - 3.$